

ÜBER SPRACHLICHE UND KULTUROLOGISCHE MERKMALE VON SCHMUCKNAMEN IN USBEKISCHER, DEUTSCHER UND RUSSISCHER SPRACHE UND DIE BESONDERHEIT IHRER ÜBERSETZUNG AUS DER USBEKISCHEN SPRACHE

Tokhir Egamschukurovich ALIMOV

Doktorand (PhD)

Usbekische Staatliche Universität für Weltsprachen

Taschkent, Usbekistan

O'ZBEK, NEMIS VA RUS TILLARIDAGI TAQINCHOQ NOMLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI VA ULARNI O'ZBEK TILIDAN TARJIMA QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Tohir Egamshukurovich ALIMOV

Tayanch doktoranti (PhD)

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

О ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЯХ НАЗВАНИЙ УКРАШЕНИЙ В УЗБЕКСКОМ, НЕМЕЦКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ И СПЕЦИФИКЕ ИХ ПЕРЕВОДА С УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Тоҳир Эгамшуқурович АЛИМОВ

Докторант (PhD)

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

LINGUO-CULTURAL FEATURES OF JEWELRY NAMES IN THE UZBEK, GERMAN AND RUSSIAN LANGUAGES AND THE SPECIFICITY OF THEIR TRANSLATION FROM THE UZBEK LANGUAGE

Tohir Egamshukurovich ALIMOV

Doctoral student (PhD)

Uzbekistan State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan tohir@gmx.net

UDC (УО'К, УДК): 811.112.2: 81.255.4

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Alimov T.E. O'zbek, nemis va rus tillaridagi taqinchoq nomlarining lingvomadaniy xususiyatlari // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 4 (51). — B. 99-105.

<https://doi.org/10.36078/1692686458>

Abstrakt. Der Artikel behandelt einige Adjektive in usbekischen, deutschen und russischen Sprachen sowie die Besonderheiten der vergleichenden Übersetzung verwandter Lexeme. Dank der Unabhängigkeit unseres Landes wurden seine diplomatischen, politischen und kulturellen Beziehungen zu anderen Ländern erweitert, die usbekische Sprache hat direkten Kontakte zu Fremdsprachen erweitert und die Tourismusindustrie ist aktiver geworden. Es werden Übersetzungen in Fremdsprachen, darunter Deutsch und Russisch, gefördert. Es ist anerkannt, dass es wichtig ist, die Bräuche, Rituale und Namen der Alltagsgegenstände des usbekischen Volkes zu kennen, um die Schmuckbenennungen und damit verbundenen lexikalischen Einheiten der usbekischen Kultur ins Deutsche und Russische zu übersetzen. Der Artikel stellt fest,

Received: June 11, 2023
Accepted: August 17, 2023
Published: August 20, 2023

Copyright © 2023 by author(s).
This work is licensed under the Creative
Commons Attribution International License
(CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

dass die analysierten usbekischen nationalen Ornamente Äquivalente in deutscher und russischer Sprache haben. Sie unterscheiden sich zwar in ihrer Form, sind aber in ihrer Semantik ähnlich. Es ist wichtig zu analysieren, ob sie in Übersetzungen richtig interpretiert werden.

Schlüsselwörter: Schmuck; Wort; Lexem; Begriff; Übersetzung; Usbekisch; Deutsch; Russisch; Forschung.

Annotatsiya. Maqolada o'zbek, nemis va rus tillaridagi ba'zi taqinchoq turlarining nomlari va unga oid leksemalarni qiyosiy-chog'ishtirma aspektida tarjima qilishning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq qilingan. Mustaqillikka erishgach, yurtimizning boshqa mamlakatlar bilan diplomatik, siyosiy va madaniy munosabatlari tobora kengayishi natijasida o'zbek tilining xorijda o'rganilishi ommalashdi. Turizm sohasining faollashishi natijasida o'zga xalq vakillarini o'zbek millati madaniyatining o'tmishi va bugungi kuni bilan tanishtirishga va ular bilan bog'liq leksemalarni xorijiy tillarga, jumladan, nemis va rus tillariga tarjima qilishga ehtiyoj sezilmoqda. O'zbek madaniyatiga tegishli bo'lgan taqinchoqlar va u bilan bog'liq leksik birliklarni nemis va rus tillariga to'g'ri o'girish uchun, avvalo, o'zbek xalqining urf-odatlarini, rasm-rusumlari hamda maishiy buyumlar nomlarini yaxshi bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada tahlil qilingan o'zbek milliy taqinchoqlari nemis va rus tillarida ekvivalentlariga ega bo'lib, ular shaklan farq qilsa-da, semantik tuzilishi nuqtayi nazaridan bir-biriga yaqinligi va tarjimalarda to'g'ri talqin qilish dolzarbligi qayd etilgan.

Kalit so'zlar: taqinchoq; so'z; leksema; termin; tarjima; o'zbek tili; nemis tili; rus tili; tadqiq qilish.

Аннотация. В статье исследованы особенности перевода названий некоторых видов украшений и связанных с ними лексем на узбекский, немецкий и русский языки в сравнительно-сравнительном аспекте. Для правильного перевода на немецкий и русский языки украшений и связанных с ними лексических единиц, относящихся к узбекской культуре, важно прежде всего хорошее знание обычаев, образов и названий предметов быта узбекского народа. Названия узбекских национальных украшений, проанализированных в статье, имеют эквиваленты в немецком и русском языках, и хотя они различаются по форме, они близки друг другу по смысловой структуре. В статье отмечается актуальность правильного толкования переведенных наименований для общения.

Ключевые слова: ювелирные изделия; слово; лексема; термин; перевод; узбекский; немецкий; русский.

Abstract. The article studies the features of the translation of the names of some types of jewelry and related lexemes into Uzbek, German and Russian in a comparative aspect. For the correct translation into German and Russian of jewelry and related lexical units related to Uzbek culture, it is important to have a good knowledge of the customs, images and names of household items of the Uzbek people. The names of the Uzbek national ornaments analyzed in the article have equivalents in German and Russian, and although they differ in form, they are close to each other in their semantic structure. The article notes the relevance of the correct interpretation of the object names for successful communication.

Keywords: jewelry; word; lexeme; term; translation; Uzbek; German; Russian; research.

O‘zbek tilida maishiy buyumlar leksik birliklar tarkibi juda keng. O‘zbek tili so‘z boyligining muhim qismini tashkil etuvchi ushbu leksik qatlam yillar davomida shakllangan va rivojlangan. Ularning semantik qatlami o‘zbek xalqi hayotining ko‘p qirralarini qamrab oladi. O‘zbek tili lug‘atining ushbu turkum so‘zlarini o‘rganish nafaqat ularning semantik xususiyatlarini, balki o‘zbek xalqining moddiy madaniyati, uning tarixiy o‘tmishi haqida tushunchaga ega bo‘lishga imkon yaratadi. O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi tufayli uning boshqa mamlakatlar bilan diplomatik, siyosiy va madaniy munosabatlari tobora kengayib, o‘zbek tilining xorijiy tillar bilan bevosita aloqalarining kengayishiga, turizm sohasining faollashishiga olib kelmoqda. Quyida tadqiqqa tortilayotgan *to‘g‘nag‘ich*, *tillaqosh*, *sirg‘a*, *munchoq*, *tumor*, *bilaguzuk* o‘zbek milliy taqinchoqlar nomlari turistlar uchun qiziqish uyg‘otadi.

To‘g‘nag‘ich — “to‘g‘nash, qadash, mahkamlash uchun ishlatiladigan moslama (mas., bir uchi to‘mtoq igna, o‘tkir uchi uyachasiga tushib mahkamlanadigan asbob, sochga qadaladigan tutqich)” (13, 256). U tarixan Hozirgi O‘zbekistonning hududida joylashgan Shimoliy Baqtriyaning Sopolli madaniyati aholisi tomonidan keng foydalanilgan taqinchoq turlaridan biri bo‘lib hisoblangan (2, 5). *To‘g‘nag‘ich* leksemasi nemis tili manbalarida *Sicherheitsnadel* deb tarjima qilinib, quyidagicha izohlangan: *Gerät aus einer besonders gebogenen verschließbaren Metallnadel, mit der etwas fest an etwas geheftet werden kann* (17, 1066).

Ushbu taqinchoq nomi rus tilida “булавка” ko‘rinishida tarjima qilinib, “*игла с головкой, служащая для прикалывания или (с красивой головкой) для украшения*” ma‘nosida qo‘llaniladi (4, 128).

Tillaqosh — “xotin-qizlarning tilladan yasalgan yoki tilla suvi yugurtirilgan, peshanaga taqiladigan bezak buyumi” (13, 97). Sh. Rahmatullayevning fikricha, “bu tojikcha *tilla* oti bilan o‘zbekcha *qosh* otidan tuzilgan bo‘lib, ayollarning tilladan yasalgan yoki tilla suvi yugurtirilgan, peshanaga taqiladigan bezak buyumi ma‘nosini anglatadi” (8, 226). Ushbu so‘z o‘zbekcha badiiy matnlarda ham uchrab turadi. Masalan, Sunatilla Anorboyevning “Mehr” qissasida qo‘llanilgan: *Nazokatga kelin libosi kiydirilib, bo‘yniga dur-marvarid, yoqut, olmos ko‘zli kumush tumor, peshanasiga tillaqosh taqishadi* (13, 97).

Mazkur leksema nemis tilining izohli lug‘atida *Diade* deb berilgan va quyidagicha izohlangan: *Schmuckstück mit Edelsteinen, das als Stirn oder Haarschmuck getragen wird* (3, 243). Nemischa *Diadem* so‘zi grekcha *Diadema* (peshana bog‘ichi) so‘zidan kelib chiqqan va “peshana yoki boshga taqiladigan qimmatbaho bezak ma‘nosini anglatadi” (19).

Rus tilining izohli lug‘atida *diadema* “женское головное драгоценное украшение первонач. головной убор царей, а ранее — жрецов” ko‘rinishda talqin qilingan (4, 167).

Nemischa *Diadem* va ruscha *diadema* o‘zining kelib chiqishlari bo‘yicha: grekcha *Diadema* (Διάδημα < diadeo “peshana

bog'ichi") so'zidan kelib chiqqan va "peshana yoki boshga taqiladigan qimmatbaho bezak ma'nosini anglatadi" (17, 3).

Sirg'a — "quloqqa taqiladigan bezak buyum; isirg'a, zirak" (12, 525). Sh. Rahmatullayevning ta'kidlashicha, "bu ot qadimgi turkiy tildagi "zich qilib, pishiqlab, tik" ma'nosini anglatgan **сыры** — fe'lining ... 'zichlab yopishtir-', 'teshib os-' ma'nosi asosida kuchaytirish ma'nosini ifodalovchi **-q** qo'shimchasi bilan hosil qilingan shaklidan **-a** qo'shimchasi bilan yasalgan; keyinchalik ikki unli oralig'idagi **q** undoshi g' undoshiga almashgan, ikkinchi bo'g'indagi tor unli talaffuz qilinmay qo'ygan ...; o'zbek tilidagi **a** unlisi **â** unlisiga almashgan, **ы** unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan: (**сыры-** + **к** = **сырык-**) + **а** = **сырықа** > **сырыға** > **сырға** > **сырғә** (9, 289). *Sirg'a* leksemasi o'zbek badiiy asarlarida ham keng uchraydi. Masalan: *Xusniddin to'xtab turib, marvarid sirg'alarini serkillatib kelayotgan Qandolatxon bilan omonlashdi* (5, 203).

Surxondaryo vohasining hozirgi Sherobod tumanida xotin-qizlar balog'at yoshiga yetgach, quloqqa turli *uy sirg'a, oyboldoq sirg'a, qoziq sirg'a, Muhammadi sirg'alarini* taqqan. "Xususan, vohada aylana yoki bodomsimon sirg'alar bo'lib, "*halqayi Muhammadi*" yoki "*Muhammadi sirg'a*" deb nomlangan. Muhammadi sirg'aning toq sonli osilchoqlari bo'lib, ularning soniga qarab "*uch oyoqli*", "*besht oyoqli*", "*yetti oyoqli*", "*to'qqiz oyoqli*", "*o'n bir oyoqli*" kabi turlarga bo'lingan. Vohada "to'qqiz oyoqli" va "o'n bir oyoqli" Muhammadi sirg'ani asosan boy xotinlar taqishgan, bu sirg'ani voha ayollari Bibi Fotimaning sirg'asi deb, muqaddas bilganlar" (14, 183).

Sirg'a leksemasi nemis tiliga *der Ohrring, das Ohrgehänge* yoki *der Ohrschmuck* deb tarjima qilinib, ularga lug'atlarda quyidagi izohlar berilgan "**der Ohrring** - *Schmuckstück, das durch ein Loch im Ohrläppchen gezogen wird oder ans Ohrläppchen geklemmt wird. Das Ohrgehänge*-größere, hängende, am Ohr befestigte Schmuckstücke. **Der Ohrschmuck** - meist am Ohrläppchen befestigter Schmuck aus Metall, Holz, Stein, Elfenbein oder ähnliches. In Form von Ringen, Gehängen, Steckern, Pflöcken oder Scheiben" (17, 833).

O'zbekcha *sirg'a* so'zining rus tiliga *серьга* ko'rinishdagi muqobili mavjud bo'lib, u "украшение, обычно с драгоценным камнем, продеваемое в мочку уха" deb izohlanadi (4, 712).

N. M. Shanskiy, T. A. Bobrovaning fikricha, rus tiliga "сырға «серьга» < «кольцо» shaklida turkiy tildan o'zlashgan (15).

Munchoq — "qimmatbaho va rang-barang shisha, tosh va shu kabi narsalardan yasaladigan, asosan, ziynat uchun ipga tizib, bo'yinga, qo'lga yoki bilakka taqiladigan dumaloq yoki boshqa shakldagi donalar" (11, 642). Sh. Rahmatullayevning etimologik lug'atida ko'rsatilishicha, "bu so'z asli qadimgi turkiy tilda **boyun** otining **moyun** shaklidan **-chuq** qo'shimchasi bilan hosil qilingan; keyinroq **yo'** tovushlari talaffuz qilinmay qo'ygan ..., so'ngra **o** unlisi **u** unlisiga ..., shundan keyin ikkinchi bo'g'indagi **u** unlisi **a** unlisiga ..., oxiri o'zbek tilida **q** undoshi oldidagi **a** unlisi **â** unlisiga

almashgan: **(boyun > moyun) +chuq = moyunchuq > monchuq > munchuq > munchaq > munchâq**” (9, 242).

Munchoq leksemasini nemis tilida *die Perle* yoki *die Perlenkette* deb tarjima qilingan. Nemis tilining izohli lugʻatida ushbu soʻz “*die Perle — glänzendes Kügelchen aus Perlmutter, das von Schalentieren um einen eingedrungenen Fremdkörper herum gebildet wird* va *die Perlenkette — eine Kette, die aus auf einen Faden aufgezogenen Perlen besteht*” koʻrinishda talqin qilingan (17, 865–866). Oʻzbek tilida boʻlgani singari nemis tilida ham *Perle* leksemasi koʻchma maʼnoda qoʻllaniladi. Misol uchun nemislar sevgilisi, yori yoki turmush oʻrtogʻini erkalatib, ularga *meine Perle* deb murojaat qilishadi. Shuningdek, ular ushbu soʻz birikmasini yoqtirgan ayoliga (koʻpincha uy xizmatkoriga) nisbatan ham ishlatishadi.

Rus tiliga *munchoq* soʻzi *бусы* deb tarjima qilinadi. Rus tilining izohli lugʻatida ushbu leksema «*украшение в виде нанизанных на нитку шариков, зерен*» tarzida izohlagan (4, 132).

Tumor — “xotin-qizlarning kiyim ustidan boʻyinga osiladigan yoki yelkaga osib, qoʻltiqqa tushirib yuriladigan bezagi (13, 188). *Tumor* taqish odati azaldan Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan. *Tumorlar* sochga, chopon yo doʻppiga, beshik va belanchakka, yotoq-uy, xonadonlarga osib qoʻyilgan. Bunday uchburchak *tumorlarni* maishiy turmushdagi turli joylarda ham uchratish mumkin. *Tumor* leksemasini xalq ogʻzaki ijodi yoki maqollarda ham qoʻllanilgan: “Chinordek boʻying boʻlguncha, tumordek aqling boʻlsin” (6, 135).

Nemis tilining izohli lugʻatida oʻzbekcha *tumor* soʻzining ekvivalenti *das Amulett* quyidagicha izohlangan: “*Gegenstand, der als Glücksbringer getragen wird, ein Schmuckstück mit angeblich magischen schützenden, glückbringenden Kräften*” (17, 54).

Tumor soʻzi rus tiliga *amulet* deb tarjima qilinadi. Lotin tilidan kirib kelgan ushbu soʻz (18) rus tilining izohli lugʻatida quyidagicha talqin qilingan: “*предмет, носимый на теле и считаемый магическим средством против болезни, несчастья*” (4, 31).

Koʻrinib turibdiki, oʻzbek, nemis va rus xalqlari madaniy hayotining farqli jihatlari koʻp boʻlishiga qaramasdan, oʻzb. *tumor* — nem. *das Amulett* — rus. *amulet* kabi taqinchoqlarning maqsad va vazifasi bir-biriga juda yaqin.

Bilaguzuk — “ayollar bilakka taqadigan ziynat buyumi, taqinchoq” (10, 257). Mazkur leksema “eski oʻzbek tilida **biläk** oʻzoʻgi birikmasini bir soʻzga birlashtirib hosil qilgan, ... yaxlit talaffuz qilish natijasida **k** undoshi **g** undoshiga almashgan, soʻz oxiridagi **-i** egalik qoʻshimchasi talaffuz qilinmay qoʻyilgan, shundan keyin **g** undoshi **k** undoshi qaytgan; oʻ unlilarining yumshoqlik belgisi yoʻqolgan: **biläk ýzygi > bilägýzyg > biläguzuk** (9, b. 49).

Bilaguzuk nemis tiliga *das Armband* deb tarjima qilinadi. Nemis tilining izohli lugʻatida unga quyidagicha izoh berilgan:

“*Band, Schmuckkette, das zum Schmuck über dem Handgelenk getragen wird*” (17, 87). Ushbu soʻz nemis tilida ham qoʻshma ot, yaʼni *Arm + band* birikmasini bir soʻzga birlashtirish natijasida hosil qilingan.

Bilaguzuk leksemasining rus tilidagi ekvivalenti *браслет* hisoblanadi. *Braslet* rus tiliga fransuz tilidan (*bracelet < bras* qoʻl) oʻzlashgan soʻz boʻlib, “1. *Украшение в виде кольца, кости и т. п., носимое на запястье. 2. Охватывающий запястье металлический держатель для наручных часов*” (3, 140) maʼnolarida qoʻllaniladi.

Yuqorida keltirilgan material shundan darak beradiki, tahlil qilingan oʻzbek milliy taqinchoqlarining nemis va rus tillarida muqobillari mavjud boʻlib, ular shaklan farq qilsa-da, oʻzlarining semantik tuzilishi nuqtayi nazaridan bir-biriga yaqin.

Ushbu taqinchoq va bezaklar nemis, oʻzbek va rus xalqlarining nafaqat oʻtmishi, balki ularning ijtimoiy-madaniy hayoti va tasavvurlarini ham namoyon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Зуннунова С. Олов. — Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. — 32 б.
2. Каттаева Г. Сополли маданияти тақинчоқларининг турлари ва вазифаси хусусида мулоҳазалар // Жамият ва инновациялар — Общество и инновации — Society and innovations Special Issue. — 2021. — № 5. — Б. 180–190. ISSN 2181-1415.
3. Крысин Л.П. Толковый словарь иноязычных слов. — М.: Эксмо, 2010. — 944 с.
4. Ожегов С.И. Словарь русского языка. — М.: Русский язык, 1990. — 915 с.
5. Мирмухсин. Фёлан кучсизлик қиссаси, Ҳикоялар. Қиссалар. — Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. — 203 б.
6. Мирзаев Т., Мусоқулов А., Саримсоқов Б. Ўзбек халқ мақоллари. — Тошкент: Шарқ нашриёт-матбааакциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2005. — 457 б.
7. Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари луғати. — Тошкент: “Мухаррир” нашриёти, 2011. — 186 б.
8. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (форсча, тожикча бирликлар ва улар билан ҳосилалар). — Тошкент: “Университет”, 2009. — 226 б.
9. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). — Тошкент: Университет, 2000. — 289 б.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. — Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. 1-ж. — 680 б.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. — Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. 2-ж. — 672 б.
12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. — Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. 3-ж. — 688 б.
13. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. — Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. 4-ж. — 608 б.
14. Турсунов С., Турсунов А., Тоғаева М., Шеробод тарихи ва этнографияси. — Термиз: Янги нашр, 2014. — 356 б.

15. Шанский Н.М. Боброва Т.А. Школьный этимологический словарь русского языка. — М.: Дрофа, 2004.
16. Шипова Е. Н. Словарь тюркизмов в русском языке. — Алма-Ата: Наука КазССР, 1976. — 260 с.
17. Karl-Dieter Bunting. Deutsches Wörterbuch. — Isis Verlag AG, Schweiz, 1996. — 1066 s.
18. <http://rus-yaz.niv.ru/doc/school-etymological-dictionary/index.htm>
19. <https://lexicography.online/etymology>
20. <https://www.dwds.de/wb/Diadem>

References

1. Zunnunova S. *Olov* (Fire), Tashkent: Literature and Art Publishing House, 1982, 32 p.
2. Kattaeva G. *Society and innovations - Obshchestvo i innovatsii - Society and innovations, Special Issue*, 2021, No. 5, pp. 180–190.
3. Krysin L.P. *Tolkovyi slovar' inoyazychnykh slov* (Explanatory dictionary of foreign words), Moscow: Eksmo, 2010, 944 p.
4. Ozhegov S.I. *Slovar' russkogo yazyka* (Dictionary of the Russian language), Moscow: Russian language, 1990, 915 p.
5. Mirmukhsin. *Fe"lan kuchsizlik kissasi, hikoyalar. Kissalar* (Felan's story of weakness, Stories), Tashkent: Adabiet va san"at nashrieti, 1972, 203 p.
6. Mirzaev T., Musokulov A., Sarimsokov B. *Uzbek khalk makollari* (Uzbek folk proverbs), Tashkent: Shark nashriet-matbaaaktsiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2005, 457 p.
7. Nafasov T. *KashKadare uzbek khalk suzlari lugati* (Dictionary of Kashkadarya Uzbek folk words), Tashkent: Muharrir, 2011, 186 p.
8. Rahmatullaev Sh. *Uzbek tilining etimologik lugati (forscha, tozhikcha birliklar va ular bilan hosilalar)* (Etymological dictionary of the Uzbek language (Persian, Tajik units and their derivatives)), Tashkent: Universitet, 2009, 226 p.
9. Rahmatullaev Sh. *Uzbek tilining etimologik lugati (turkii suzlar)* (Etymological dictionary of the Uzbek language (Turkish words)), Tashkent: Universitet, 2000, 289 p.
10. *Uzbek tilining izohli lugati* (An explanatory dictionary of the Uzbek language), Toshkent: "Uzbekiston millii entsiklopediyasi" Davlat ilmii nashrieti, 2006, volume 1, 680 p.
11. *Uzbek tilining izohli lugati* (An explanatory dictionary of the Uzbek language), Toshkent: "Uzbekiston millii entsiklopediyasi" Davlat ilmii nashrieti, 2006, volume 2, 672 p.
12. *Uzbek tilining izohli lugati* (An explanatory dictionary of the Uzbek language), Toshkent: "Uzbekiston millii entsiklopediyasi" Davlat ilmii nashrieti, 2006, volume 3, 688 p.
13. *Uzbek tilining izohli lugati* (An explanatory dictionary of the Uzbek language), Toshkent: "Uzbekiston millii entsiklopediyasi" Davlat ilmii nashrieti, 2008, volume 4, 608 p.
14. Tursunov S., Tursunov A., Togaeva M. *Sherobod tarixi va etnografiyasi* (History and Ethnography of Sherabad), Termiz: Yangi nashr, 2014, 356 p.
15. Shanskii N.M. Bobrova T.A. *Shkol'nyi etimologicheskii slovar' russkogo yazyka* (School etymological dictionary of Russian language), Moscow: Drofa, 2004.
16. Shipova E. N. *Clovar' tyurkizmov v rusckom yazyke* (Dictionary of Turkisms in Russian), Alma-Ata: Nauka KazССР, 1976, 260 p.
17. Karl-Dieter Bunting. *Deutsches Wörterbuch*, Isis Verlag AG, Schweiz, 1996, 1066 p.
18. <http://rus-yaz.niv.ru/doc/school-etymological-dictionary/index.htm>
19. <https://lexicography.online/etymology>
20. <https://www.dwds.de/wb/Diadem>